



YANGI KORXONALAR UCHUN FOYDA SOLIG'IDAGI IMTIYOZLAR: IMKONIYAT VA XAVFLAR

TAX INCENTIVES ON CORPORATE INCOME FOR NEW ENTERPRISES: OPPORTUNITIES AND RISKS

¹Turdiqulova Gulmira
Obidqul qizi

¹TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrası tayanch
doktoranti. **G-mail:** gulmiraturdiqulova99@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda soliq siyosatining o'rni ayniqsa, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun beriladigan soliq imtiyozlari, xususan, foyda solig'idan ozod qilish yoki kamaytirilgan stavkalar qo'llash holatlari yoritilgan. Shuningdek, bu kabi imtiyozlar bilan bog'liq bo'lgan ba'zi xavf-hatarlar va salbiy holatlarining oldini olish, ma'lumotlarning ishonchliligi va xosligini ta'minlash, soliq tashabbuslarini muvofiqlashtirish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Eng. - This article highlights the role of tax policy in improving the business environment, creating new jobs, and accelerating economic growth, particularly through the provision of tax incentives for newly established enterprises – such as exemption from corporate income tax or the application of reduced tax rates. The article also addresses certain risks and negative aspects associated with such incentives, focusing on preventing misuse, ensuring the reliability and authenticity of information, and coordinating tax initiatives effectively.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *soliq, foyda solig'i, soliq imtiyozlari, yashirin iqtisodiyot.*
❖ *taxation, corporate income tax, tax incentives, informal economy.*

Kirish.

Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda soliq siyosatining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun beriladigan soliq imtiyozlari, xususan, foyda solig'idan ozod qilish yoki kamaytirilgan stavkalar qo'llash mamlakat iqtisodiy muhitini yanada jozibador qilish, xususiy sektor faolligini oshirish va investitsiyalarni jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Yangi korxonalarni foyda solig'idan vaqtincha ozod qilish ularga dastlabki faoliyat davrida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsion

xarajatlarni qoplash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bunday imtiyozlar nafaqat iqtisodiy foyda keltirishi, balki ayrim xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, soliq imtiyozlaridan noto'g'ri foydalanish, sun'iy ravishda yangi korxonalar tashkil etish orqali soliqlardan bo'yin tovlash holatlari uchrashi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, soliq tushumlarining kamayishi davlat byudjeti barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foyda solig'i yuridik shaxslar daromadidan olinadigan asosiy soliqlardan biridir. Yangi tashkil topgan korxonalar uchun bu soliqning yuki katta bo'lishi mumkin, chunki

dastlabki bosqichda ular hali barqaror daromadga ega bo'lmaydi. Ko'plab davlatlar, jumladan, O'zbekistonda ham yangi tashkil topgan korxonalarga foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar berib kelinmoqda. Ammo ushbu imtiyozlarni noto'g'ri tarzda ishlatayotgan va soliq to'lashdan bo'yin tortayotgan korxonalar bugungi kunda uchramoqda.

Shu sababli, yangi korxonalar uchun belgilangan soliq imtiyozlarini qo'llashda ehtiyotkorlik bilan yondashish, ularni aniq maqsadlar asosida berish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shundagina bu imtiyozlar iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilib, mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, xususan foyda solig'i bo'yicha beriladigan engilliklar, so'nggi yillarda soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish vositasi sifatida keng o'rganilmoqda.

M.Mishustin fikriga ko'ra, yangi tashkil etilgan korxonalar o'z faoliyatini to'laqonli yo'lga qo'yib olishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh bo'lishlari, shuningdek soliq organlari, tegishli davlat idoralari va moliyaviy institutlar o'rtasida zarur ma'lumot almashinuvi tizimlari samaradorligini oshirish, soliq tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda barqarorlik va shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [1].

G.Mankiv foyda solig'ini iqtisodiyotdagi resurslarni taqsimlash vositasi sifatida tahlil qiladi. Shuningdek Mankiv soliqlarni svilizatsiyalashgan jamiyat uchun to'laydigan narximiz deb aytib o'tgan [2].

V.Tanzi va H.Howell imtiyozlar investitsiyalarni jalb qilishda foydali bo'lishi mumkinligini ta'kidlasa-da, ularning noto'g'ri qo'llanishi davlat budjetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadilar [3].

Soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida yangi tashkil etilgan korxonalar, xususan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun taqdim etiladigan soliq imtiyozlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ushbu imtiyozlar investitsion muhitni yaxshilash va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmiga qarab, korxonalar daromad solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa bir qator soliqlardan ma'lum muddatga ozod etiladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha investitsiya kiritgan korxonalar – 3 yil muddatga;
- 3 milliondan 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq – 7 yil muddatga.

Bu imtiyozlar korxonalarning investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi [4].

Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi hisobotlarida soliq imtiyozlari noto'g'ri boshqarilganda yashirin iqtisodiyot kengayishiga, korxonalarning sun'iy ravishda qayta ro'yxatdan o'tish holatlariga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu holat O'zbekiston amaliyotida ham uchrashi ehtimoldan holi emas [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot doirasida tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yangi tashkil etilgan korxona va firmalarning o'z faoliyatini to'liq yo'lga qo'yib olishlari, raqobatbardosh bo'lishlari, moliyaviy mustaqillikka erishishlari hamda yuqori foyda ko'rsatkichlariga ega bo'lishlari uchun hukumat tomonidan soliq yengilliklari va imtiyozlari taqdim etiladi. Chunki, faoliyatning dastlabki bosqichlarida katta soliq yuki bu korxonalar uchun jiddiy moliyaviy bosim va

qiyinchiliklar tug'diradi. Foyda solig'i — bu yuridik shaxslarning sof foydasidan olinadigan soliq turi bo'lib, unga berilgan imtiyozlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish va yangi biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Yangi korxonalar uchun foyda solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar amaliyotda keng qo'llaniladi:

Ma'lum muddatga soliqlardan ozod qilish-2-3 yilgacha foyda solig'idan ozod etiladi.

Pasaytirilgan soliq stavkalarini qo'llash - standart stavkadan past soliq stavkalari undiriladi.

Hududiy imtiyozlar - erkin iqtisodiy zonalar, qoloq hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun ishlatiladi.

Tarmoq bo'yicha imtiyozlar - IT, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, ekologik toza texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalar uchun ishlatiladi.

Bu imtiyozlardan ko'zlangan bir qancha maqsadlar mavjud. Avvalombor, ushbu imtiyozlar qo'llanilganda tadbirkorlarni rag'batlashtirilishiga olib keladi va ulardagi foyda solig'i yukining kamaytirilishi ko'plab yangi bizneslar paydo bo'lishi va ish o'rinlarining ko'payishiga olib keladi. Soliq imtiyozlari natijasida yangi tashkil etilgan korxonalar hisoblarida pul mablag'lari hajmi ortadi va bu esa investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini yaratadi. Ushbu imtiyozlar xorijiy va mahalliy investorlar uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada, korxonalar o'rtasida raqobatbardosh muhit shakllanadi va ular yirik xo'jalik subyektlari bilan teng sharoitda raqobatlasha olish darajasiga yetadi. Korxonalar sonining ko'payishi esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining yaratilishi va bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi imtiyozlardan noto'g'ri foydalanayotgan shaxslar ham uchrab, quyidagi xavf-xatarlar yuzaga keladi.

Birinchidan, soliqdan bo'yin tovlash imkoniyati mavjud: ba'zi yuridik shaxslar imtiyoz olish maqsadida korxonani qayta ro'yxatga o'tkazib, sun'iy "yangi" korxona sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ikkinchidan, imtiyozlar keng ko'lamda tatbiq etilganda, qisqa muddatda davlat byudjetiga tushumlar sezilarli darajada kamayishi mumkin. Uchinchi xavf imtiyozga ega bo'lgan korxonalar shunday yengilliklarga ega bo'lmayotgan tadbirkorlarga nisbatan ustunlikka ega bo'lishadi. To'rtinchi jihat - imtiyozlarning qo'llanilish jarayoni yetarli darajada monitoring qilinmasa, rejalashtirilgan natijalar olinmasligi ehtimoli bor.

Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida mamlakatimizda soliq sohasida yanada chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng avvalo, davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvozanatlash, shaffof va barqaror mexanizmlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bunga quyidagi chora-tadbirlar kiradi:

raqamli texnologiyalardan keng ko'lamda foydalanish orqali axborot almashinuvi infratuzilmasini izchil rivojlantirish;

ma'muriy yukni kamaytirish, soliq jarayonlarini avtomatlashtirish va monitoringni kuchaytirish;

soliqqa oid ma'lumotlar bazalarini uzluksiz yangilab borish va soliq organlari, davlat idoralari hamda moliyaviy institutlar o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashinishni yo'lga qo'yish.

O'zbekistonda yangi tashkil etilgan korxonalar uchun foyda solig'i bo'yicha bir nechta asosiy imtiyozlar joriy etilgan bo'lib, ularning maqsadi — tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Quyidagi imtiyozlar eng ko'p qo'llaniladi:

Pasaytirilgan foyda solig'i stavkasi.

Agar korxoning jami daromadi faoliyatining birinchi marotaba o'tkazilgan soliq davrida 10 mlrd. so'mdan oshsa, u holda joriy va keyingi soliq davrlarida foyda solig'i 7,5

foiz stavkada to'lanadi. Bunda jami daromad 100 10 mlrd. so'mdan oshmasligi kerak. Misol uchun, agar korxona 2023-yil I chorak yakunida ilk bor foyda solig'i to'lasa, 2024-yilda 7,5 foiz stavkada to'lash huquqiga ega bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozlar.

Agar yangi tashkil etilgan korxonaning ustav kapitalida xorijiy investitsiya mavjud bo'lsa, quyidagi shartlarga ko'ra foyda solig'idan ozod etish yoki imtiyoz berish mumkin:

Xorijiy investitsiya miqdori 300 ming AQSh dollaridan 3 mln. AQSh dollarigacha bo'lsa – 3 yil muddatga;

3 mln. dan 10 mln. AQSh dollarigacha bo'lsa – 5 yil muddatga;

10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lsa – 7 yil muddatga.

Ushbu imtiyozlar yangi investitsiyalarni jalb qilish hamda ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Eksport qiluvchilar uchun imtiyozlar (2025-yil 1-yanvardan bekor qilingan). 2025-yil boshidan boshlab eksportga yo'naltirilgan korxonalarda foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilindi. Bu o'zgarishlar eksportga qaratilgan tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukining oshishiga olib kelishi mumkin.

Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda umumiy soliq imtiyozlaridan foydalanib kelgan korxonalar soni 134 504 tani tashkil etdi. Shulardan foyda solig'i imtiyozlaridan foydalanayotgan korxonalar soni esa 772 tani tashkil etadi. Demak, foyda solig'i bo'yicha imtiyoz olgan korxonalar umumiy imtiyozlar olgan subyektlarning atigi 0,57 foizni tashkil

qilmoqda. 2024-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, O'zbekistonda umumiy soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar soni 149 789 taga yetdi. Shu davrda foyda solig'i bo'yicha qo'llanilgan imtiyozlar summasi 3,7 trln. so'mni tashkil qildi.

Xulosa va takliflar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun foyda solig'i bo'yicha taqdim etiladigan soliq imtiyozlari O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiya faoliyatini faollashtirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Bunday imtiyozlar korxonalarni ilk faoliyat bosqichida moliyaviy yengillik bilan ta'minlab, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pasaytirilgan soliq stavkalari yoki muddatli soliq imtiyozlari kichik va o'rta biznesning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar va amaliy tahlillar soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligi va iqtisodiy adolatlilik tamoyillariga mosligini doimiy baholab borish zarurligini ta'kidlaydi. Imtiyozlarning noto'g'ri qo'llanishi davlat budjetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, yashirin iqtisodiyot va soliq intizomining zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shu boisdan, soliq siyosati doirasida imtiyozlar tizimini takomillashtirish, ularni maqsadli va shaffof mezonlar asosida ajratish, foydalanuvchilar ustidan samarali monitoringni yo'lga qo'yish va fiskal barqarorlikni saqlab qolish kabi masalalar ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М.В. Мишустин. Механизм государственного налогового администрирования в России. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2003.
2. N. Gregory Mankiw – "Principles of Economics" (9-nashr). 2021.
3. T.Vito and Howell H. Zee. "Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries". Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) 2000.
4. <https://soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti.
5. World Bank, 2020; IMF, 2019.